

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Xudo
Tomonidan
Yuborilgan
Odam



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
E. Frischbutter; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2015 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Bir kuni Xudoning Ma'badida,
Zakariyo ismli nuroniy ruhoniy,
tutatqi kuydirayotgan edi.
Tashqarida odamlar ibodat
qilishardi. To'satdan
Zakariyoni qo'rquv
bosdi.



Ruhoniy oldiga bir farishta kelgandi. "Qo'rqma," dedi u.



"Meni Xudo yubordi. Sening xotining o'g'il tug'adi.
Uning ismini Yahyo qo'yasan. U tug'ilgan zahoti
Muqaddas Ruhga to'ladi.
U ko'p insonlarni Xudoga
qaytaradi."



"Zakariyo, bizlarga gapir."
Tashqaridagi odamlar hayron
qolishdi. Ular, farishta
Jabroil Zakariyo Xudoning
xabariga ishonmagani uchun
bolasi tug'ilmaguncha
gapira olmasligini
aytganini
bilishmasdi.



Zakariyo xotinining
yoshi o'tgani tufayli
bola ko'rolmaydi
deb o'ylagandi.




Uyiga kelib, Zakariyo farishta unga aytgan hamma narsani yozdi. Uning xotini Elizabet hayratda qoldi. Ular har doim bola uchun ibodat qilishgandi. Nahotki endi bolalik bo'lishsa?





Tez orada Elizabet
homilador bo'lganini
bilib qoldi. U Xudoni
ulug'ladi. Bir kuni,
Elizabetning jiyani
Maryam ularnikiga
mehmon bo'lib keldi.
Maryam ham
homilador edi.





Maryam kelganida,
Elizabeth qornidagi
bolasi o'ynoqlab
ketganini sezdi.
Elizabeth Muqaddas
Ruhga to'lgan edi.
U Maryamning
bolasi Rab Iso
Masih bo'lishini
bilardi. Ikki ayol
birgalikda
xursandchilik bilan
Xudoni ulug'lashdi.



Xudo va'da qilganidek, Elizabetning bo'lasi tug'ildi.
"Bolaga otasi kabi Zakariyo, deb ism qo'yinglar,"

dedi boshqa bir ruhoniy. Zakariyo
Xudoning amrini esladi. "Yo'q!
Bolaning ismi Yahyo." Zakariyo
bu so'zlarni yozganida, u
yana gapira oladigan
bo'ldi. Shunda u
Xudoni ulug'ladi.



Yahyo ulg'aygandan
so'ng Ilyos payg'ambar
kabi Xudoning buyuk
odami bo'ldi. Yahyo
odamlarga Masih tez
orada kelib ularni
marhamatlashini aytdi.



Yahudiy rahbarlar Yahyoni yomon ko'rishardi chunki u, ularga, "Tavba qilinglar! Gunoh qilishni bas qilinglar" degandi. Ular o'z gunohlari haqida eshitishni xohlashmasdi.



Boshqalar uni Yahyo Cho`mdiruvchi deb atashardi, chunki u odamlarni gunohlaridan tavba qilganliklarini kursatish uchun suvga cho`mdirar edi.



Bir kuni Iso Yahyoning oldiga suvga cho`mdirilish uchun keldi. Yahyo "Sen meni suvga cho`mdirishing kerak" deya qarshilik qildi. Lekin Iso "Yozilganidek bulsin" dedi. Shunda Yahyo uni suvga cho`mdirdi.



Yahyo Isoni suvga
cho`mdirganida
Muqaddas Ruh
Isoning ustiga
kabutar ko`rinishida
qo`nganini ko`rdi. Bu
Xudoning belgisi edi.
Yahyo Iso Xudoning
O`g`li ekanligini
bilardi. Yahyo Isoni
dunyoning gunohlarini
oluvchi Xudovandning
Qo`zisi deb atadi.





Yahyo ko`plab
insonlarni Xudoga
yaqinlashtirdi. Lekin
Hirod, yovuz hokim
Yahyoni zindonga
tashladi. Yahyo
Hirodga: "Ukangning
xotini Hirodiyani
olishing gunoh" dedi.






Hirod buni
to`g`riligini bilardi.
U Yahyo Xudoning
odil va muqaddas
xizmatchisi
ekanligini bilardi.
Lekin u gunoh
qilishdan to`xtashni
xohlamadi. Yahyo
zindonga tushishini
bilsa ham gunohga
qarshi va`z qilishdan
to`xtamasdi.



Hirod tug`ulgan kunida katta ziyofat qildi. Hirodiyaning qizi u uchun raqsga tushdi. Bu Hirodga yoqdi. U "Xohlaganingni olasan, hatto shohligimning yarmini ham", deya va`da berdi.





Qiz "Nima
so`rasam ekan"
deya o'ylanib
qoldi. Yahyodan
nafratlanuvchi
uning yozuv
onasi Hirodiya
nima so`rashni
unga aytdi. Bu
juda daxshatli
edi!



"Menga Yahyo
Cho`mdiruvchining boshini
laganda olib kelib bering"
dedi qiz Hirodga. U va`da
berganidan afsuslandi
lekin va`dasini buzishga
g`ururi yo`l qo`ymadi.
"Yahyoning boshini olib
kel" deya buyruq berdi
Hirod. Uning askarlarni
unga bo`ysunishdi.



G`amgin holda Yahyoning do`stlari Xudoning jasur va sodiq xizmatchisini ko'mishdi. Yahyoning Xudoga xizmati endi tugagandi. Balki ular qayg`ularida Iso ularga tasalli bera olishini bilishar edi.



Xudo Tomonidan Yuborilgan Odam
Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan
...dan topilgan

Mark 6-bob, Luqo 1, 3-boblar

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

